

**XALQARO TURIZMNI BOSHQARISHNING IJTIMOIY
MAS'ULIYATLI ASPEKTLARI**

Radjapova Nasiba Makhmudjonovna¹

¹*Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Turizm fakulteti 3-bosqich talabasi*

**MAQOLA
MALUMOTI**

MAQOLA TARIXI:

Received: 23.06.2025

Revised: 24.06.2025

Accepted: 25.06.2025

KALIT SO'ZLAR:

*ijtimoiy mas'uliyat,
xalqaro turizm,
inklyuzivlik, Fair Trade
Tourism.*

ANNOTATSIYA:

Mazkur maqolada xalqaro turizmni boshqarishda ijtimoiy mas'uliyatlari yondashuvlarning mohiyati, xalqaro amaliyotdagi yutuqlari va O'zbekiston sharoitida bu yondashuvlarni tatbiq etish imkoniyatlari tahlil etiladi. Ijtimoiy mas'uliyatlari turizm — bu iqtisodiy foyda bilan birga inson huquqlariga hurmat, madaniy qadriyatlarni asrash va ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan boshqaruvi modelidir.

KIRISH. Bugungi globallashuv jarayonida xalqaro turizm dunyo iqtisodiyotining ajralmas qismiga aylangan bo'lib, millionlab insonlar hayot tarziga, madaniy aloqalarga va iqtisodiy faoliyatga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda barqaror rivojlanish, inson huquqlari, madaniy merosni asrash va ekologik muhofaza kabi ijtimoiy omillar turizm siyosatining muhim tarkibiy qismlaridan biriga aylandi. Shu sababli, turizmni boshqarish jarayonida ijtimoiy mas'uliyatlari yondashuvlar muhim strategik yo'nalishga aylanmoqda.

Ijtimoiy mas'uliyatlari boshqaruvi (responsible management) bu faqat sayyoohlarga xizmat ko'rsatish emas, balki mahalliy hamjamiyatlar manfaatini inobatga olish, mehnat huquqlariga rioya qilish, teng imkoniyatlar yaratish va madaniy diversitetni saqlashni nazarda tutadi. Xalqaro miqyosda "mas'uliyatlari turizm" konsepsiysi keng ommalashib, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) bilan hamohang bo'lgan yondashuvlar ishlab chiqilmoqda. Ayniqsa, turizm tashkilotlarining korporativ ijtimoiy mas'uliyati (CSR), axloqiy kodekslarga amal qilishi va mahalliy aholiga salbiy emas, aksincha, ijobiy ta'sir ko'rsatishi muhim boshqaruvi mezoniga aylanmoqda.

Mazkur maqolada xalqaro turizmni boshqarishda ijtimoiy mas'uliyatning dolzarbliji, uning nazariy va amaliy asoslari, turli mamlakatlardagi ilg'or tajribalar, hamda O'zbekiston sharoitida bu yondashuvni tatbiq etish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, mas'uliyatlari boshqaruvning asosiy tamoyillari, manfaatdor tomonlarning roli, va xalqaro etik me'yorlar asosida shakllanayotgan yangi boshqaruvi modellari o'rganiladi.

Xalqaro turizm ijtimoiy, madaniy va ekologik tizimlarga bevosita ta'sir ko'rsatadigan murakkab jarayon hisoblanadi. Aynan shu sababli turizmni boshqarishda ijtimoiy mas'uliyat

tushunchasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy mas'uliyat bu — sayyoqlik faoliyati orqali faqat iqtisodiy foyda emas, balki jamiyatga foydali bo'lgan, inson huquqlari, madaniy meros, teng imkoniyat va ekologik muvozanatni ta'minlovchi yondashuvni bildiradi. Bu konsepsiya turizmni barqaror rivojlantirish g'oyasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2030-yilgacha mo'ljallangan Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan uzviy uyg'unlashadi[8].

Xalqaro turizmda ijtimoiy mas'uliyat asosan uch asosiy yo'nalishda namoyon bo'ladi: birinchisi — mahalliy hamjamiatlar bilan teng va adolatli hamkorlikni ta'minlash; ikkinchisi — sayyoqlar va xodimlar uchun xavfsiz, adolatli va insoniy sharoitlarni yaratish; uchinchisi esa — madaniy va ekologik resurslardan foydalanishda mas'uliyatli yondashuvni shakllantirishdir. Shu boisdan xalqaro tashkilotlar — jumladan, Juhon Turizm Tashkiloti (UNWTO), Global Sustainable Tourism Council (GSTC) va World Travel & Tourism Council (WTTC) tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro kodekslar va standartlar aynan ushbu prinsiplarni amalga oshirishga xizmat qiladi[5].

Mas'uliyatli turizmni tashkil etishda mehmonxonalar, sayohat agentliklari, aviakompaniyalar va boshqa xizmat ko'rsatuvchi subyektlar o'z faoliyatini ijtimoiy-axloqiy tamoyillarga asoslashlari kerak. Korporativ ijtimoiy mas'uliyat (CSR) turizm kompaniyalari uchun faqat imij yaratish vositasi emas, balki mijozlar ishonchini mustahkamlovchi, brendning barqarorligini oshiruvchi strategik elementga aylangan. Shu sababli, xalqaro maydonda faoliyat yurituvchi ko'plab kompaniyalar o'z ijtimoiy majburiyatlarini ochiq e'lon qiladi, turli xayriya loyihibarida qatnashadi va ekologik me'yordarga rioya qilishni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi.

Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda ijtimoiy mas'uliyatli yondashuv turizmning salbiy oqibatlarini kamaytirishga yordam beradi. Sayyoqlar sonining keskin ortishi, narxlarning oshishi, madaniy g'ovur va tabiiy resurslarning ekspluatatsiyasi kabi holatlar faqat mas'uliyatli boshqaruv orqali muvozanatga keltiriladi. Shu ma'noda, xalqaro turizmda ijtimoiy mas'uliyat konsepsiysi nafaqat me'yoriy yondashuv, balki zamonaviy boshqaruvning muhim etik negiziga aylanmoqda.

Bugungi kunda turizm sohasida ijtimoiy mas'uliyatni boshqaruvga tatbiq etish bo'yicha ko'plab mamlakatlarda ilg'or amaliyotlar shakllangan. Ushbu amaliyotlar asosida turizm faqat iqtisodiy daromad manbai emas, balki mahalliy hamjamiatlar farovonligini ta'minlovchi, madaniy merosni himoya qiluvchi va ekologik muvozanatni saqlovchi vosita sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, sayyoqlar sonining keskin ortishi kuzatilayotgan mamlakatlarda mas'uliyatli boshqaruv modellariga ehtiyoj keskin oshmoqda. Ana shunday yondashuvlar orqali xorijda turizmning salbiy ijtimoiy ta'sirlarini kamaytirish, ijtimoiy inklyuzivlikni kuchaytirish va mahalliy aholi manfaatlarini himoya qilishga erishilmoqda.

Masalan, Janubiy Afrikada faoliyat yurituvchi *Fair Trade Tourism* dasturi sayyoqlik korxonalarini adolatli mehnat sharoitlari, atrof-muhitga mas'uliyatli munosabat va mahalliy aholi ishtiroki orqali baholab, sertifikatlash tizimini taklif qiladi. Kosta-Rikada esa *CST — Certificado para la Sostenibilidad Turística* dasturi yordamida turistik obyektlar ijtimoiy va ekologik mezonlar asosida reytinglanadi. Bu dastur doirasida nafaqat ekologik me'yordarga, balki mahalliy ishchi kuchidan foydalanish, madaniy qadriyatlarni saqlash va jamoalar bilan aloqalarni mustahkamlash mezonlari ham qo'shilgan.

Shuningdek, Nepalda faoliyat yurituvchi mas'uliyatli trekking agentliklari mahalliy gidlarga adolatli maosh to'lash, xavfsiz mehnat sharoitlarini ta'minlash va ayollarni ishga jalg qilish orqali ijtimoiy tenglikni ilgari surmoqda. Kanadadagi Indigenous Tourism Association esa mahalliy aholi — ayniqsa, tub aholining turizm orqali o'z iqtisodiy va madaniy mustaqilligini rivojlantirishiga yordam beradi. Bu tashkilotlar sayyoohlarni faqatgina servis emas, balki mintaqaning ijtimoiy hayoti bilan tanishtirishga ham xizmat qiladi.

Quyidagi jadvalda ayrim muhim ijtimoiy mas'uliyatli boshqaruv tajribalari solishtirma tarzda umumlashtirilgan:

I-jadval.

Xalqaro turizmda ijtimoiy mas'uliyatli boshqaruv amaliyotlari

Mamlakat	Dastur / Tashkilot	Asosiy yo'nalishlar	Natijalar
Janubiy Afrika	Fair Trade Tourism	Adolatli mehnat, mahalliy ishtirot, ekologik barqarorlik	Sayyoohlarning oshishi, barqaror xizmatlar
Kosta-Rika	CST (Tourism Sustainability Cert.)	Ekologik va ijtimoiy mezonlar asosida reyting	Turizm obyektlarining mas'uliyatli faoliyati
Nepal	Local Trekking Agencies	Gidlar uchun xavfsiz mehnat, ayollar ishtiroti, mahalliy yetakchilik	Jinsiy tenglik, iqtisodiy mustahkamlik
Kanada	Indigenous Tourism Association	Mahalliy madaniyatni himoya qilish, iqtisodiy mustaqillik	Tub aholi hayot sifatining oshishi

Manba: Mualliflik ishlanchasi

Ushbu tajribalar shuni ko'rsatadiki, xalqaro turizmda ijtimoiy mas'uliyatga asoslangan boshqaruv modeli ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash bilan birga, destinatsiyaning xalqaro nufuzini va ishonchlilagini oshiradi. Mas'uliyatli sayohat trendga aylangan hozirgi davrda bu yondashuv marketing vositasi emas, balki axloqiy va strategik zaruratdir.

Ijtimoiy mas'uliyatli boshqaruvning samarali amalga oshirilishi ko'plab omillar uyg'unligi va o'zaro integratsiyasiga bog'liq[11]. Bu omillar xalqaro turizm tizimining har bir qatlamiga – sayyoqlik kompaniyasidan tortib, davlat siyosatigacha – bevosita ta'sir ko'rsatadi. Asosiy jihatlardan biri bu — mahalliy aholi manfaatlarini ustuvorlik sifatida tan olishdir. Har qanday turistik faoliyat, avvalo, mahalliy aholi hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi, balki ularning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitini yaxshilashi kerak. Bunga ish o'rinnari yaratish, mahalliy mahsulotlarni targ'ib qilish, turizm daromadlarining ma'lum qismini jamoaviy infratuzilmalarga yo'naltirish orqali erishiladi.

Yana bir muhim omil — adolatli mehnat sharoitlarini ta'minlashdir. Turizm sohasida bandlik darajasi yuqori bo'lsa-da, bu sektor ko'pincha mavsumiylik, rasmiy bo'Imagan mehnat va past maoshlar bilan bog'liq muammolarga duch keladi. Ijtimoiy mas'uliyatli boshqaruv bu holatlarning oldini olish uchun kompaniyalar va davlat tomonidan normativ kafolatlar, xodimlarni tayyorlash dasturlari va ijtimoiy himoya mexanizmlarini talab qiladi.

Madaniy diversitetni hurmat qilish va himoya qilish ham ijtimoiy mas'uliyatli boshqaruvning muhim tarkibiy qismidir. Turizm ko'p hollarda mahalliy urf-odatlar va qadriyatlarga bosim o'tkazuvchi omilga aylanishi mumkin. Shu sababli, destinatsiya boshqaruvchilari va operatorlar mehmonlar va sayyoohlarda madaniy ongni oshirish, mahalliy aholiga hurmatli munosabatni shakllantirish uchun targ'ibot vositalaridan foydalanishlari lozim.

Boshqaruvning ijtimoiy mas'uliyatga asoslanishi uchun yana bir asosiy shart — ayollar va zaif guruhlarning teng huquqli ishtirokini ta'minlashdir. Ayollar ko'pincha turizmda xizmat ko'rsatish yo'nalishlarida faol ishtirok etadi, ammo ularning boshqaruvdagagi ulushi past bo'ladi. Shu bois, gender tenglik siyosati, imkoniyatlar tengligi va inklyuziv ish joylari yaratish orqali teng ishtirokni ta'minlash kerak. Bu nafaqat axloqiy, balki iqtisodiy samaradorlikni oshiruvchi omil sifatida ham qaralmoqda.

Shuningdek, atmosfera va ekologik salohiyatga e'tiborli bo'lish — ijtimoiy mas'uliyatli turizmnинг ajralmas qismidir. Axir inson salomatligi, jamoaviy farovonlik va turizm resurslarining saqlanishi bevosita atrof-muhit holatiga bog'liq. Shu sababli, chiqindilarni kamaytirish, energiyani tejash, ekologik transportdan foydalanish va tabiiy resurslarni mas'uliyatli boshqarish orqali ijtimoiy barqarorlik ham mustahkamlanadi.

Umuman olganda, ijtimoiy mas'uliyatli boshqaruvning har bir omili yagona maqsad – turizm orqali adolatli, insoniy va barqaror jamiyatni qurishga xizmat qiladi. Bu omillar o'zaro bog'liq va faqat tizimli yondashuv orqali samarali natijalar berishi mumkin.

O'zbekiston o'zining boy madaniy merosi, tarixiy shaharlar majmuasi, ko'p millatli aholisi va tabiiy resurslari bilan xalqaro turizmda ulkan salohiyatga ega. So'nggi yillarda mamlakatda turizm sohasini rivojlantirishga oid qator islohotlar amalga oshirildi, sayyoohlar uchun vizasiz rejimlar joriy qilindi, infratuzilmalar modernizatsiya qilinmoqda[11]. Shu bilan birga, O'zbekistonda turizmni boshqarishda ijtimoiy mas'uliyatli yondashuvlarni joriy etish ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekistonning aksariyat turistik hududlari tarixiy va etnik jihatdan boy, ammo bu resurslardan mas'uliyatli foydalanish talab etiladi. Masalan, Buxoro, Samarqand va Xiva kabi shaharlarda turistlar oqimi yil sayin ortmoqda, bu esa mahalliy infratuzilma, tabiiy resurslar va ijtimoiy muhitga bosimni kuchaytirmoqda. Shu sababli, sayyoohlik faoliyatini boshqarishda mahalliy aholining roziligi, manfaatlari va ishtiroki muhim ahamiyatga ega. Mas'uliyatli turizm yondashuvi mahalliy hamjamiyatni sayyoohlik jarayonining passiv kuzatuvchisidan faol ishtirokchisiga aylantiradi.

Ayniqsa, O'zbekistonning tog'li va chekka hududlarida ekoturizm, agro-turizm va madaniy turizm yo'nalishlarida ijtimoiy mas'uliyatli boshqaruvning katta imkoniyatlari mavjud. Boysun, Zaamin, Surxondaryo va Qashqdaryo kabi hududlarda mahalliy aholi bilan hamkorlikda homiylik loyihamonlari yo'lga qo'yish, ayollarni va yoshlarni turizm xizmatlariga jalb etish, xalq amaliy san'atini iqtisodiy imkoniyatga aylantirish mumkin. Bunday loyihamonlari barqaror daromad manbalarini yaratadi, migratsiyani kamaytiradi va ijtimoiy inklyuzivlikni oshiradi.

Bundan tashqari, davlat tomonidan ilgari surilayotgan "Yashil makon", "Mahallabay turizm" va "Har bir hudud – brend" kabi tashabbuslar ham ijtimoiy mas'uliyatli boshqaruvni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Bu kabi tashabbuslarda ekologik muvozanatni saqlash, tarixiy obidalarni himoya qilish, va ayniqsa, ayollar, nogironligi bor

shaxslar, yoshlар va keksalar ishtirokini faollashtirish orqali inklyuziv turizm siyosatini shakllantirish mumkin.

Shuningdek, O'zbekistonda raqamli texnologiyalarni tatbiq etish orqali ijtimoiy mas'uliyat darajasini oshirish mumkin. Masalan, mobil ilovalar yordamida sayyoohlar uchun mahalliy xizmat ko'rsatuvchilar, ekologik toza marshrutlar, ayollar tomonidan boshqariladigan uy-mehmonxonalar haqida ma'lumot berish orqali adolatli va ijtimoiy jihatdan mas'uliyatli turizm modelini shakllantirish mumkin. Turizm sohasidagi ta'lim muassasalari va nodavlat tashkilotlar bu jarayonning muhim aktorlariga aylanishi lozim.

O'zbekiston xalqaro turizmda o'z mavqeini mustahkamlash uchun ijtimoiy mas'uliyatli boshqaruv tamoyillarini chuqur integratsiya qilishi, bu borada xalqaro tajribalarni mahalliy sharoitlarga moslashadirishi va turizm faoliyatini inson huquqlari, tenglik va barqarorlik asosida rivojlantirishi zarur.

Xalqaro turizmni boshqarishda ijtimoiy mas'uliyat tamoyillarining kuchayishi hozirgi global muhitda nafaqat dolzarb, balki zarur ehtiyoja aylangan. Bu yondashuv sayyoohlik faoliyatining nafaqat iqtisodiy samaradorligini, balki ijtimoiy adolat, tenglik va madaniy hurmat kabi qadriyatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Maqolada tahlil etilgan xalqaro amaliyotlar – Fair Trade Tourism, CST, Indigenous Tourism va boshqa tashabbuslar – ijtimoiy mas'uliyatli boshqaruvning amaliy ko'rinishlarini ifodalaydi va ularning muvaffaqiyatli ishlashining sababi – mahalliy hamjamiyatni faol ishtirokchi sifatida tan olinishidadir.

O'zbekiston sharoitida ham ijtimoiy mas'uliyatli turizm boshqaruvi orqali sayyoohlikning salbiy oqibatlarini kamaytirish, mahalliy aholini iqtisodiy va madaniy jihatdan mustahkamlash, inklyuzivlikni kengaytirish mumkin. Ayniqsa, chekka va tog'li hududlarda ekoturizm, agro-turizm va madaniy turizm orqali ayollar, yoshlар va zaif ijtimoiy guruhlarni faol jalg qilish orqali turizmnинг ijtimoiy qiymatini oshirish mumkin.

Ushbu kontekstda quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

Birinchidan, turizm tashkilotlari va operatorlar ijtimoiy mas'uliyat siyosatini ishlab chiqishi va uni amaliyotga joriy etishi zarur. Bunda ishchi kuchiga teng munosabat, xavfsiz va qonuniy mehnat sharoitlari, gender tenglik va ekologik qadriyatlarga hurmat asosiy mezon bo'lishi kerak.

Ikkinchidan, mahalliy aholining turizm jarayonlarida faol ishtirokini ta'minlovchi mexanizmlarni kuchaytirish lozim. Bu esa ularni faqat xizmat ko'rsatuvchi emas, balki qaror qabul qiluvchi va foyda oluvchi subyektga aylantiradi.

Uchinchidan, ijtimoiy mas'uliyat mezonlariga asoslangan turistik sertifikatlash tizimini joriy etish orqali mas'uliyatli xizmat ko'rsatish standartlarini ommalashtirish mumkin. Bu nafaqat xorijiy sayyoohlar ishonchini oshiradi, balki mahalliy xizmat ko'rsatuvchilarning raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

To'rtinchidan, turizmda axloqiy kodekslarni ishlab chiqish, barcha manfaatdor tomonlarning ularni qabul qilishini rag'batlantirish va monitoring tizimlarini yo'lga qo'yish dolzarbdir.

Beshinchidan, ta'lim tizimida ijtimoiy mas'uliyatli turizmga oid bilimlarni integratsiyalash orqali kelajak avlod boshqaruvchilarining ongida mas'uliyatli yondashuv shakllantiriladi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy mas'uliyatli boshqaruv turizmda inson qadriyati, madaniyatga hurmat va barqaror taraqqiyot tamoyillarini uyg'unlashtirish orqali yanada samarali vaadolatli tizimni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu yondashuv orqali O'zbekiston xalqaro turizm maydonida nafaqat jozibador manzil, balki ijtimoiy barqarorlik tamoyillariga sodiq bo'lgan davlat sifatida tanilishi mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Navruz-zoda B. N., Najmiddinov S. N. IMPORTANCE AND ROLE OF ZIYARAH TOURISM IN RAISING TOURISM POTENTIAL OF BUKHARA REGION //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – T. 3. – №. 2. – C. 231-235.
2. Palladino, S., & Rossi, M. (2021). *Smart Technologies in Tourism: From Artificial Intelligence to Blockchain*. Springer.
3. Sulton N. et al. IMPORTANCE OF SMART TOURISM IN IMPROVING TOURISM MANAGEMENT IN UZBEKISTAN //Gospodarka i Innowacje. – 2024. – T. 46. – C. 15-19.
4. Хайитбоев Бегзод Хамидуллаевич, Нажмиддинов Султон Нурали Угли Опыт зарубежных стран в формировании цифровой экономики: выводы и перспективы для Узбекистана // Вестник науки и образования. 2020. №1-2 (79). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/opyt-zarubezhnyh-stran-v-formirovani-tsifrovoy-ekonomiki-vyyody-i-perspektivy-dlya-uzbekistana> (дата обращения: 12.03.2025).
5. UNWTO (2023). *Tourism for Inclusive Growth: Advancing Social Responsibility in the Sector*. Madrid.
6. Doğan, Y. (2024). *Digitalization in the Tourism Sector and Future Trends*. Tourist Destination, 2(2), 59–68.
7. Goodwin, H. (2022). *Responsible Tourism: Using Tourism for Sustainable Development* (2nd ed.). Oxford: Goodfellow Publishers.
8. <https://www.unwto.org>
9. <https://www.gstcouncil.org>
10. <https://www.responsibletravel.com>
11. <https://uzbekistan.travel>